



## Toshkent viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-iyun)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent viloyati korxonalaridan 28,6 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 101,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (85,3 %) ni tashkil etdi.



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 9,6 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 2,5 % ga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda 24,0 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 15,0 % ga o'sishi kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



## Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jamisanoat mahsulotlarini hajmidagi ulushi



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan tomonidan 2020- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1116,4 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarini hajmining 3,9% ni tashkil etdi.



## Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalaridan tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan tabiiy gaz qazib olish 14,2 % ga, hamda chaqiq tosh - 3,9% ga oshgan boʻlsa, koʻmir qazib olish -0,7% ga, kaolin - 0,8% ga, shagʻal qazib olish 60,8% ga pasaygan.




Sanoatmahsulotlari	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
<b>Ko'mir, ming t.</b>	1409,3	1399,5	-9,8
<b>Tabiiy gaz, mln. kub.m.</b>	133,5	152,5	19
<b>Chaqiq tosh, ming t.</b>	162,8	169,1	6,3
<b>Shag'al , ming t.</b>	77,6	30,4	-47,2
<b>Kaolin, ming t.</b>	106,7	105,9	-0,8



### Ishlab chiqaradigan sanoat

2020- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 24559.8 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 85,8% ini tashkil etdi.





**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi  
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,4% ni (2019- yil yanvar-iyun oylarida –0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali –12,3% (12,2%), o'rta-quyi texnologiyali – 50,4 % (51,8 %) va quyi texnologiyalisi 21.7% (21,2 %) ni tashkil etdi.

**2019-yil  
yanvar-iyun, % da**



yuqoritexnologiyali  
o'rta-yuqoritexnologiyali

**2020-yil  
yanvar-iyun, % da**



quyitexnologiyali  
o'rta-quyitexnologiyali

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 8,8% (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajmindeksi –114,0%), metallurgiya sanoatining ulushi –43,0% (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,5%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi –7,9 % (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,4%), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi –12,2% (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,3%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi –7,5 % (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,5%) ni tashkil etdi.



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoatmahsulotlari	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Yumshoqbug'doyvaspeltauni, <i>ming t.</i>	135,3	169,2	33,9
O'simlikyog'i (tozalangan), <i>ming t.</i>	4,2	3,5	-0,7
Pivo, <i>ming l</i>	55293,7	74200,4	18906,7
Kalavaip, <i>ming t</i>	17,7	14,8	-2,9
Paxtatolasi, <i>ming t.</i>	10,0	21,1	11,1
Paxtachigiti, <i>ming t.</i>	16,3	34,4	18,1



**Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Portlandsement, <i>ming t.</i>	2315,6	2133,7	-181,9
Sementklinkerlari, <i>ming t</i>	1683,9	1786,8	102,9
Etilspirti, <i>ming l.</i>	6739,6	7015,6	276
Kultivatorlar, <i>dona</i>	1064	537	-527
Avtomobildvigittelari, <i>dona.</i>	93652	113078	19426



Texnologik jihozlarni capital qayta tiklashishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan, ammoniy sulfat (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 110,5%), karbomid (111,8%) o'sish ko'rsatkichlari qayd etildi.

Shuningdek, sulfat kislotasi (2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 95,6%), mineral o'qitlar (93,9%) mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida pasayish kuzatildi.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2825,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (9,9%)ni tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 15,0% ga oshganligi kuzatildi.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoatmahsulotlari	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
<b>Elektroenergiya,</b> <i>mln.kVt/s</i>	8891,2	8157,8	-733,4
<b>Issiqlikenergiyasi,</b> <i>mingkal</i>	1887,9	2078,2	190,3



### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 119,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4% ini) tashkil etdi.



### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoatmahsulotlari	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
<b>Oqavasuvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar,</b> <i>mlrd.so'm</i>	17896,3	18492,3	596
<b>Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari,</b> <i>mln.so'm</i>	40992,7	48500,4	7507,7



## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5,9 trln.so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 8,8 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 20,6% ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yil yanvar-iyun oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida noziq-ovqat mahsulotlarning ulushi 52,2% dan 46,7% gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 15,3% (2019-yil yanvar-iyun oylarida 21,7 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Zangiota tumaniga to'g'ri kelib, 3,4% ni, shuningdek, Qibray tumani 2,1% ni, Chirchiq shahri 1,9% ni, Ohangaron shahri 2,3% ni hamda Angren shahri 1,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (108,8%) darajasidan yuqori ko'rsatkich Ohangaron (165,3%), Bekobod (186,0%), Angren (134,8 %) shaharlarida, Quyichirchiq (197,3%) hamda Qibray (117,5%) tumanlarida qayd etildi.






**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
(2020-yilning yanvar-may oylarida)


	Mlrd.so'm	Jamiganisb atan ulushi, % da	2019-yil yanvar- iyunoylariga nisbatan, % da
Toshkentviloyati	5889,5	20,6	108,8
<b>Shaharlar:</b>			
Nurafshon	69,5	17,3	93,7
Olmaliq	94,3	0,9	66,1
Angren	497,5	23,7	134,8
Bekobod	127,6	4,0	186,0
Ohangaron	668,4	48,4	165,3
Chirchiq	539,4	24,1	114,8
Yangiyo'l	136,6	50,3	85,1
<b>Tumanlar:</b>			
Oqqo'rg'on	222,6	64,7	138,2
Ohangaron	76,6	46,7	78,7
Bekobod	63,0	40,1	87,6
Bo'stonliq	226,3	34,7	93,8
Bo'ka	54,1	86,9	64,4
Zangiota	963,4	36,3	105,8
Yuqorichirchiq	325,6	59,5	89,5
Quyichirchiq	152,6	56,2	197,3
Qibray	590,4	33,3	117,5
Parkent	121,8	77,6	94,4
Piskent	166,8	79,1	102,5
O'rtachirchiq	112,5	63,3	60,0
Chinoz	126,5	69,5	83,5
Yangiyo'l	185,5	38,4	101,3
Toshkent	368,7	63,9	92,0

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qibray tumaniga to‘g‘ri kelib, 69,2 %, shuningdek, Bo'stonliq tumani 66,0 % ni, Zangiota tumani 68,4 % ni, Yuqorichirchiq tumani 66,8 % ni hamda Angren shahri 55,7 % ni tashkil etdi.

 <b>Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati</b> <i>(2020-yilning yanvar-iyun oylarida)</i>			
	<b>Mrd.so'm</b>	<b>Jamiganisbatanulushi, % da</b>	<b>2019-yil yanvar- iyunoylariga nisbatan, % da</b>
Toshkentviloyati	3137,3	53,3	113,5
<b>Shaharlar:</b>			
Nurafshon	23,7	34,1	91,0
Olmaliq	41,5	44,0	67,3
Angren	277,1	55,7	149,9
Bekobod	38,0	29,8	158,4
Ohangaron	314,9	47,1	156,4
Chirchiq	159,9	29,6	119,4
Yangiyo'l	56,8	41,6	78,0
<b>Tumanlar:</b>			
Oqqo'rg'on	141,6	63,6	140,6
Ohangaron	32,0	41,8	79,0
Bekobod	29,0	46,0	90,3
Bo'stonliq	149,3	66,0	96,7
Bo'ka	24,5	45,4	68,1
Zangiota	659,3	68,4	118,5
Yuqorichirchiq	197,9	60,8	100,3
Quyichirchiq	61,8	40,5	187,1
Qibray	408,8	69,2	122,8
Parkent	63,4	52,0	87,5
Piskent	101,4	60,8	93,6
O'rtachirchiq	43,5	38,6	62,6
Chinoz	74,0	58,5	98,5
Yangiyo'l	72,4	39,0	104,3
Toshkent	166,8	45,2	91,7

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bekobod shahriga to'g'ri kelib, 70,2 % ni, shuningdek, Chirchiq shahri 70,4 % ni, Olmaliq shahri 56,0 % ni, Ohangaron shahri 52,9 % ni hamda Toshkent tumani 54,8 % nitashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Bekobod shahri (200,8%), Ohangaron shahri (174,1 %), Chirchiq shahri (113,0%) hamda Quyichirchiq (204,9 %) tumanida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
(2020-yilning yanvar-iyun oylarida)

	Mrd.so'm	Jamiganisbatanulushi, % da	2019-yil yanvar- iyunoylariga nisbatan, % da
Toshkentviloyati	2752,2	46,7	103,9
<b>Shaharlar:</b>			
Nurafshon	45,8	65,9	95,1
Olmaliq	52,8	56,0	65,2
Angren	220,4	44,3	119,7
Bekobod	89,5	70,2	200,8
Ohangaron	353,5	52,9	174,1
Chirchiq	379,6	70,4	113,0
Yangiyo'l	79,8	58,4	91,0
<b>Tumanlar:</b>			
Oqqo'rg'on	81,0	36,4	134,3
Ohangaron	44,6	58,2	78,5
Bekobod	34,0	54,0	85,5
Bo'stonliq	77,0	34,0	88,7
Bo'ka	29,5	54,6	61,6
Zangiota	304,1	31,6	86,0
Yuqorichirchiq	127,7	39,2	76,6
Quyichirchiq	90,8	59,5	204,9
Qibray	181,6	30,8	107,2
Parkent	58,4	48,0	103,1
Piskent	65,4	39,2	120,3
O'rtachirchiq	69,1	61,4	58,6
Chinoz	52,5	41,5	68,7
Yangiyo'l	113,1	61,0	99,5
Toshkent	201,9	54,8	92,2



### Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidansanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 6,3 trln. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 22,0 % nitashkil etdi.



### Toshkent viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari


	2020-yil yanvar-iyun mlrd.soʻm	Fizikhajm indeksi, % da
Toshkent viloyati	<b>28620,6</b>	<b>101,8</b>
Shaharlar:		
Nurafshon	406,9	100,6
Olmaliq	10614,8	104,7
Angren	2062,3	100,0
Bekobod	3227,0	100,5
Ohangaron	1389,5	108,8
Chirchiq	2253,5	100,9
Yangiyoʻl	272,7	91,9
Tumanlar:		
Oqqoʻrgʻon	341,9	116,4
Ohangaron	161,1	81,7
Bekobod	152,5	103,1
Boʻstonliq	641,9	87,7
Boʻka	87,0	88,2
Zangiota	2 678,8	102,5
Yuqorichirchiq	536,9	94,8
Quyichirchiq	267,8	118,8
Qibray	1768,1	104,7
Parkent	145,6	100,2
Piskent	206,5	102,5
Oʻrtachirchiq	173,1	75,2
Chinoz	185,4	74,9
Yangiyoʻl	462,3	100,2
Toshkent	585,1	97,3



**Toshkent viloyatihududlar kesimida ishlab  
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari  
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati% da**


Toshkent viloyatisanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishiga, Chinoz (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 74,9 %), Bo'ka 88,2 %), O'rtachirchiq (75,2%), Ohangaron (81,7%), tumanlarida hamda Yangiyo'l shaharida (91,9%) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.

**Sanoat ishlab chiqarish  
fizik hajmi indeksi, % da**



Nurafshonsh  
Olmaliqsh  
Angrensh  
Bekobodsh  
Ohangaronsh  
Yangiyo'lsh  
Chirchiqsh  
Oqqo'rg'on  
Ohangaron  
Bekobod  
Bo'stonliq  
Bo'ka  
Zangiota  
Yuqorichirchiq  
Quyichirchiq  
Qibray  
Parkent  
Piskent  
O'rtachirchiq  
Chinoz  
Yangiyo'l  
Toshkent

**Iste'mol mahsulotlari  
ishlab chiqarishda o'sish  
sur'ati, % da**




Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Ohangaron (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 165,3 %), Bekobod (186,0%), Chirchiq (114,8%),Angren (134,8%)shaharlarida, Quyichirchiq (197,3 %),Qibray (117,5%), Oqqo'rg'on (138,2%),tumanlarida sezilarli darajada oshdi.





## Toshkent viloyatining jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Olmaliq (80661,6 ming so'm), Bekobod (33574,3 ming so'm), Ohangaron (36620,1 ming so'm) tashkil etib, Toshkent viloyati darajasi ko'rsatkichidan (9696,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1995,2 ming so'm bo'lgani holda, Ohangaron shahrida – 17616,1 ming so'mni, Chirchiq shahrida – 3420,2 ming so'mni, hamda Zangiota – 4864,9 ming so'mni, Toshkent 2035,7 ming so'mni, Qibray 2936,9 tumanlarida ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**  
(2020-yil yanvar-iyun oylarida, ming so'm)

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
<b>Toshkentviloyati</b>	<b>9 696,2</b>	<b>1 995,2</b>
<i>shaharlar:</i>		
Nurafshon	8 334,6	1 423,3
Olmaliq	80 661,6	716,7
Angren	10 908,6	2 631,7
Bekobod	33 574,3	1 327,2
Ohangaron	36 620,1	17 616,1
Chirchiq	14 288,5	3 420,2
Yangiyo'l	4 496,5	2 251,4
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on	3 248,5	2 114,7
Ohangaron	1 678,4	798,2
Bekobod	966,0	398,7
Bo'stonliq	3 789,2	1 335,9
Bo'ka	690,9	429,2
Zangiota	13 526,7	4 864,9
Yuqorichirchiq	3 951,4	2 396,1
Quyichirchiq	2 475,8	1 410,3
Qibray	8 795,5	2 936,9
Parkent	936,7	783,6
Piskent	2 043,7	1 650,4
O'rtachirchiq	1 153,6	750,2
Chinoz	1 382,1	943,0
Yangiyo'l	2 195,6	880,9
Toshkent	3 230,8	2 035,7



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda  
kichik biznesning ulushi**  
(2020-yil yanvar-iyun oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5,5 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 19,2 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bo'ka (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (100,0 %), Quyichirchiq (69,5%) , Parkent (86,0 %), O'rtachirchiq (81,8 %), Ohangaron (62,7 %), tumanlarida hamda Ohangaron (58,8 %), Yangiyo'l (45,0 %) shaharlarida kuzatildi.


Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Olmaliq (1,2 %), Bekobod (3,6 %) va Chirchiq (13,8 %) shaharlarida hamda Zangiota tumanida (31,3 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




### Toshkent viloyatidafaoliyat yuritayotgan yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 7972 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1219 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 15,3%i) Zangiota tumaniga, 728 tasi (9,1%) Qibray tumaniga, 680 tasi (8,5%) Toshkent tumaniga, 494 tasi (6,2%) Yangiyo'l tumaniga, 424 tasi (5,3%) Chirchiq shahriga to'g'ri kelmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda**



**Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda**





**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar  
ishlab chiqarishni mahalliyashtirish  
dasturining amalga oshirilishi  
(2020-yil yanvar-iyun oylarida)**

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 190 ta loyiha bo'yicha 977,5 mlrd.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 20,4 mln.AQSH dollari miqdorida mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi va 320 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

	<b>2019-yil yanvar-iyun</b>	<b>2020-yil yanvar-iyun</b>
Loyihalar soni, birlik	212	190
Korxonalar soni, birlik	46	55
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	440,9	977,5
Eksport qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSH doll	4,5	20,4
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	504	320

Toshkent viloyatida umumiy mahalliyashtirish dasturida korxonalar soni 55 ta, loyihalar soni 190 ta. Mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport hajmi o'sish surati 453,3 % ga kuzatildi.

**Sanoatstatistikasi  
bo'limi**

Tel.: (71) 202-86-66